



THE MEDIEVAL CITY AS A CONNECTING SPACE (ON THE EXAMPLE OF USTRUSHONA)

Maftuna Lapasova

PhD student

Guliston State University

Guliston, Uzbekistan

e-mail: lapasovamaftuna248@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Ustrushona, a connecting place, trade routes, urban culture, crafts, labor, and village.

Received: 13.03.25

Accepted: 15.03.25

Published: 17.03.25

Abstract: The authors of the article highlight the reasonable opinions of scholars who analyzed the fact that Ustrushon was a city located at a central crossroads, where medieval cities served not only as economic and cultural centers, but also as a connecting place between different regions, peoples, and civilizations. They also highlight the fact that Ustrushon, one of the most important strategic and economic centers of Central Asia during this period, was a meeting point for the population engaged in cattle breeding and agriculture. The economic and strategic importance of the city is also reflected in the fortresses, caravanserais, and craft centers in Ustrushon.

O`RTA ASR SHAHRI- BOG`LOVCHI MAKON SIFATIDA (USTRUSHONA MISOLIDA)

Maftuna Lapasova

tayanch doktorant

Guliston davlat universiteti

Guliston, O`zbekiston

e-mail: lapasovamaftuna248@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlar: Ustrushona, bog`lovchi makon, savdo yo`llari, shahar madaniyati, hunarmandchilik, rabot, rustoq.

Annotatsiya: O`rta asr shaharlari nafaqat iqtisodiy va madaniy markazlar, balki turli hududlar, xalqlar va sivilizatsiyalar o`rtasida bog`lovchi makon sifatida xizmat qilgan Ustrushonaning, markaziy chorraxada joylashgan shahar ekanligini tahlil qilgan

olimlarning o'rinli fikrlari, hamda ushbu davrda Markaziy Osiyoning muhim strategik va iqtisodiy markazlaridan biri Ustrushonaning chorvador va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining uchrashuv nuqtasi bo'lganligi yoritilgan. Ustrushonadagi qal'alar, karvonsaroylar va hunarmandchilik markazlari orqali shaharning iqtisodiy va strategik ahamiyati ham joy olgan.

СРЕДНЕВЕКОВЫЙ ГОРОД КАК СВЯЗУЮЩЕЕ ПРОСТРАНСТВО (НА ПРИМЕРЕ УСТРУШОНЫ)

Мафтуна Лапасова

базовый докторант

Гулистанский государственный университет

Гулистан, Узбекистан

E-mail: lapasovamaftuna248@gmail.com

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Уструшона — связующее звено, торговые пути, городская культура, ремесла, труд и деревня.</p>	<p>Аннотация: соответствующие мнения ученых, анализирующих тот факт, что средневековые города были не только экономическими и культурными центрами, но и служили связующим звеном между различными регионами, народами и цивилизациями, Уструшон был городом, расположенным на центральном перекрестке, и что Уструшон, являясь одним из важнейших стратегических и экономических центров Средней Азии в этот период, был местом встречи населения, занимавшегося скотоводством и земледелием. Экономическое и стратегическое значение города также отражено в крепостях, караван-сараях и ремесленных центрах Уструшоны.</p>	<p>Приведены мнения ученых, что средневековые города были не только экономическими и культурными центрами, но и служили связующим звеном между различными регионами, народами и цивилизациями, Уструшон был городом, расположенным на центральном перекрестке, и что Уструшон, являясь одним из важнейших стратегических и экономических центров Средней Азии в этот период, был местом встречи населения, занимавшегося скотоводством и земледелием. Экономическое и стратегическое значение города также отражено в крепостях, караван-сараях и ремесленных центрах Уструшоны.</p>
--	--	--

Ustrushona o'lkasi haqida tarixiy manbalarning tahlili va uning tasnifini yoritadigan bo'lsak birinchi galda - O'rta Osiyoning tarixiy siyosiy va harbiy davriy holati: qadimgi va ilk o'rta asrlarda tutgan o'rni mavqeni yoritish, shu tarzda Markaziy Osiyo ichki hududlari bilan faol iqtisodiy va ijtimoiy aloqada bo'lgan Ustrushona o'lkasi va unga tutash o'lkalar haqida ma'lumot berib o'tish to'g'ri hisoblanadi. Hudud haqida uning yer sur'atidagi o'rni hamda nufuzi haqida arab, xitoy manbalarida ma'lumotlar berib o'tiladi. Jumladan, arab sayyohi va geografigi Abulqosim Ibn Havqal o'zining "Kitob sur'at al-art" kitobida Ustrushona bu bir viloyat xuddi So'g'd kabidir, uni Mavorounnahrning boshqa viloyatlari o'rab yuradi sharqiy tarafdin Farg'ona- Pomirning bir qismi, g'arbdan Samarqand hududlari, shimoldan ash-Shosh va

Fargʻonaning boshqa bir qismi, janubdan esa Kesh va Chagʻononiy soʻngra baʼzi hududlar bilan tutashgan [Ibn Havqal Kitob surat al –ard 2011. B-69]. Ustrushona qoʻshni chegaralariga eʼtibor berilganda tranzitda savdo uchun qulay, bundan tashqari koʻchmanchilar hayoti uchun, ularning kelib koʻchib chorvachilik qilishi, mahalliy aholi bilan ayriboshlash imkoniyatlari bor geografik hudud hisoblangan. Buyuk ipak yoʻlining aynan shimoliy tarmogʻi oʻtishi ustrushonaliklar-tovar-mulk egalaring va oddiy aholi oʻrtasida tabaqalashuvga turtki boʻlgan boʻlsa ajab emas, chunki aynan shu davrda Oʻrta Osiyoda ishlab chiqarish anchayin jonlanib yangi xoʻjalik turlari rivoj topadi, asosiy yoʻlni bogʻlovchi shahar hisoblangan Ustrushonada esa unda oʻz karvonsaroy, ravot, rustoqlarida hayot ancha jonlanib aholi govjumlashgan.

X asrda yana bir arab olimi geograf Al-Bashariy al-Muqaddasiy oʻzining «Aqsan at-taqasim fi maʼrifat al-aqalim» («Mamlakatlarni bilish uchun eng yaxshi taqsimot») asarida Ustrushonada mavjud boʻlgan oʻziga xos rustoqlari va ularning miqdori, shuningdek baʼzi rustoq, shahar va kichik boʻlmagan qishloqlarning nomlari sanab oʻtilgan, keltirilishicha Dizak (Ustrushonada)da jun matodan ishlab chiqariladigan kiyimlar savdosi mavjudligi boshqa manbalardan farqli holatda berib oʻtiladi. Al-Muqaddasiy ham Ustrushona yoʻllari va aholi punktlari orasidagi yoʻllar uzunligi oʻlchovi haqida qisqacha xabar bergan holda Sugʻd, Kesh, Nasaf va Ustrushona mamlakatining Somoniylar davlatiga xazina uchun toʻlaydigan yillik xiroji mavjudligi haqida ham maʼlumot berib oʻtgan [Al-Bashariy al-Muqaddasiy]. Oʻrta asrlarda aynan Somoniylar davlati gullab yashnagan vaqt uning ittifoqdosh davlatlari bilan yanada turli sohada aloqalari yuksalib mustamlakachi davlatning qoʻl ostidagi kichik shahar va rustoqlar esa shunga monant tarzda rivoj topib hayot yaxshilangan, shu hududlar sirasiga Ustrushona ham kiradi.

Soʻz borayotgan geografik hududning tarixiyliigi turli xoʻjalik, turli davlatalar va turli urushlar hamda munosabatlarda tutgan oʻrni uning hudud, chegara, armiya, qonunlari hukumdorlarining oʻrni bilan belgilanishi sir emas.

Oʻrta asrlarda Ustrushonaning yozma manbalari sifatida tasvirlangan togʻli va dashti, chegarasi belgili, mudofali, mohir xalqi bor, afshin hukmdorlari tasarrufidagi mustaqil mamlakat hisoblangan. Ustrushona qadimda Soʻgʻd tarkibida boʻlgan tarixiy shahar, keyingi davlat taqdiri esa mustaqillik uchun harakatlarga ulangan. Mazkur hudud imkoniyatlari va avfzalliklari haqida Ibn Havqal quydagicha taʼrif beradi Ustrushona shaharlari kattaligi, tozaligi, bogʻlari, ayniqsa suvlarining koʻpligi jihatidan bir biriga yaqin, Ustrushonadagi Harkona, Zomin, Sabot shaharlari Fargʻonadan Shoshga oziq ovqat va boshqa mahsulotalr olib oʻtish yoʻlida joylashgan. Samarqandan Harkongacha 9 farsax, butun hududda kema yursa boʻladigan koʻl ham daryo ham yoʻq uning ekinzorlari yaylovlari va qishloqlari obod hosildor, turli tuman mevalarga boy

bundan tashqari hududning har bir shahrida katta rustoq mavjud [Ibn Havqal. Kitob surat al – ard 2011. B-69].

Qadimda va ilk oʻrta asrlarda Ustrushona chegarasiga eʼtibor bersak shimoli-sharqiy tamonida Fargʻona (Davan) vodiysi tomon ochiladigan hududiy “eshik-darcha”, janub tomoni Zarafshon (Politemit) daryosi yuqori oqimining oʻng oqimi qirgʻogi ekanligi, shimoliy tarafdin esa Sirdaryo, gʻarb tomoni Mirzachoʻl bilan oʻralgan tarixiy-madaniy oʻlka ekanligi bu muhim jihaddir [Gʻafurov B.G - M., 1972. – S.290-292]. Oʻrta asrlarda ham bu oʻlka geografik oʻrni xususiyatlariga koʻra turli siyosiy, iqtisodiy harbiy strategik vaziyatlarda oʻziga xos mavqega ega boʻlgan. Aytaylik Oʻrta Osiyoni arablar mustamlakasi davrida Sugʻd va va Buyuk ipak yoʻlining shimoliy tarmogʻi yoʻlidagi Choch oʻrtasida himoya vazifasini oʻtagan. Chochning harbiy-siyosiy vaziyati uchun Ustrushonadagi (ittifoqdoshi deb atash oʻrinli) ahvoldan xabardor boʻlib turish muhim hisoblangan, bunga oid misollar tarixiy manbalarda yetarli hisoblanadi.

Keying davrlarda manbalardan maʼlum boʻlishicha maʼmuriy tumanlar - Rustaki 3 ta hududda joylashgan hozirgi davlatlar - Tojikiston, Qirgʻiziston va Oʻzbekiston (Sirdaryo, Jizzax, Samarqand) oʻrni hisoblanadi. Ustrushonada turli vaqtlarda A.M. Belenitskiy, O.I. Smirnova, N.N. Negmatov, A.I. Bilalov, S.G. Xmelniyskiy, A.E. Berdimurodov, M.H. Pardaev, F.E.Toshboyev, A.A. Gritsina, V.F. Gaidukevich va boshqalar arxeologik va antropologik izlanishlar olib borilgan. Aynan bu hududning Oʻrta asrlarda va undan keyingi davrlarda bogʻlovchi kontakt makonga aylanishi bu davlat chegarasi va shaharlaridan Buyuk ipak yoʻlining yoʻnalishlari oʻtganligidir. Bu yerda oʻtroq va chorvador xalqning oʻzaro uzviy aloqada boʻlganligi ijtimoiy, iqtisodiy, xoʻjalik shuningdek bozor munosabatlarda bir-birini toʻldirib maʼlum tizimli harakatda boʻlganligi, koʻp hollarda esa ittifoqdoshlik aloqalarini ham oʻrnatgan, ulardagi munosabatlarning qandayligi qoʻshni hududlar bilan ziddiyatida namoyon boʻlgan madaniyati rivojlangan dehqon - chorvadorlar, zardushtiylik, buddizm, keyin esa islom dinlari keng tarqalgan.

Tadqiqotlarda Ustrushonaning tutgan oʻrni kam oʻrganilgan hududlardan biri sanaladi, oʻrta asrlarda mazkur davlat mustaqil boshqaruv tizimini saqlagan hukumat tuzilmalari qatorida muhim oʻrin tutganligi [Негматов Н.Н. в Сталинабад. 1957.] Tarixiy manbalardan maʼlumki, milodiy eraning III asri oxiriga kelib, buyuk Kushonlar imperiyasi qulash davrida, Markaziy Osiyoning oʻtroq dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi aholisi yashagan ikki daryo oraligʻidagi erlar bir necha tabiiy-geografik hududlarga boʻlinib ketdi. Vaqt oʻtishi bilan bu erlarda siyosiy tuzilmalar shakllana borib, V-VI asrlarda hududning siyosiy xaritasida dehqonchilik vohalari negizida davlatlar paydo boʻldi. V.V.Bartold bu oʻlkaning qadimiy nomini Strushona yoki Ostrushona deb talqin etiladi [Bartold V.V.1963. S.222]. A.G.Malyavkin ilk oʻrta asr xitoy

yoʻzma manbalari asosida hududning nomlanishini SHuaydushona, Suduyshona, Szebutszyuyna (Szebudana), Sudushina tarzida nomlaydi[Malyavkin A.G.1989. s.78]. N.N.Negmatov tomonidan «Ustrushona» deb talqin qilingan bu nom[Negmatov N.N.957. s.16], keyinchalik V.A.Livshits tomonidan Mugʻ gʻoridan topilgan sugʻd hujjatlari tahlili asosida aslida «Ustrushona» deb nomlanganligi isbotlandi. Yuqorida keltirilgan aniq tarixi arxeologik maʼlumotlar, hudud nomining kelib chiqishi uchun yetarli manbalar hisoblanadi, bu hududning oʻrni va tabiiy geografik sharoiti haqida maʼlumotlar tahlili F.Toshboyev tadqiqotlariga koʻra Ustrushona hududi Oʻrta Osiyoning markaziy qismida joylashgan boʻlib, katta qismi togʻli choʻl, chalachoʻl va dashtliklardan iborat. Mintaqada togʻ, togʻoldi, pasttekislik bilan choʻl zonalarining tutashib ketishi uning oʻziga xosligini tashkil etadi. Shimol va shimoli-sharqdan zinapoyasimon shakldagi tekisliklar togʻliklar tomon koʻtarilib boradi. Hududning katta qismini yer tuzilishi tekislikdan iborat boʻlgan Mirzachoʻl egallagan. Oʻlkaning yer yuzasi bir xil emas. U janubi-sharqdan shimoli-gʻarbgga tomon pasayib boradi. Tekislik qismi shimoli-gʻarbgga tomon nishab boʻlib, oʻrtacha balandligi 250–300 m ga teng. Janubdagi togʻ etaklarida balandlik 450–530 m gacha yetadi. Turkiston tizmasining shimoliy davomi hisoblangan Morguzar togʻining oʻrtacha balandligi 1500–2000 m, ayrim choʻqqilari 2621 m ga yetadi. U shimol tomon davom etib, Sangzor daryosining vodiysi orqali Nurota togʻidan ajraladi. Sangzor vodiysining eng tor joyi Ilonoʻtdi darasi (kengligi 120–130 m) hisoblanadi. Ustrushonani janubi-gʻarb tomondan chegaralab turuvchi Nurota togʻi oʻrtacha balandlikda boʻlib, eng baland choʻqqisi – Hayotboshining balandligi 2169 m ga yetadi. Oʻrta asr mualliflarini bu mavzudagi maʼlumotlarini chuqur tahlil qilgan V.V.Bartold quyidagicha fikrni ilgari suradi "Samarkand va Xoʻjand urtasidagi deyarli barcha kenglik Ustrushona yoki Sutrushana mamlakatini tarkibiga kirgan" [V.V.Bartold, 1963, 2216.] M.E.Masson oʻz ilmiy qarashlari bilan bu masalaga yanada oydinlik kiritadi. Uning yozishicha- "Aynan Ustrushona nomi bilan Jizzax va Oʻratepa oʻrtasidagi keng maʼnoda tushuniladigan rayon atalgan. Unga janub tomondagi togʻlik viloyat Buttam qoʻshilganidan soʻng mazkur nom (Ustrushona nomi bazan bu oʻlkalarga nisbatan ham qoʻllanilgan)"[Pardaev M.H., Toʻychiboev.B. 2017]. Izlanishlarda Ustrushona oʻlkasi haqida turli jihatdan xulosa beraolishimiz uchun, yaʼnikim uning oʻrta asrlarda muhim savdo karvonlari qoʻnib, shahardagi rustoqlarda chorvador va oʻtroq aholining nafaqat mahsulot ayri boshlovi shuningdek, madaniy aloqalar, etnik, antropologik yaqinlik ham nomoyon boʻlaboshlagan desak asoslidir. Bu jihat esa ayni rivoj topib muhim ahamiyat kasb etaboshlagan buyuk meridianal yoʻlning jahon savdo iqtisodiy munosabatlarda Oʻrta Osiyoning(uning qadimiy shaharlari) sharq-gʻarbni bogʻlovchi makon boʻlishiga imkon yaratib berdi desak tahliliy manbalarga munosib javobdir.

Ustrushona hududi savdo yo'llari kesishmasida muhim vazifani bajarganligi borasida F.Toshboyev xulosalariga ko'ra Savdo yo'llari chorrahasidagi Jizzax vohasida rabodlarni boshqa inshootlarga nisbatan ko'p va mohirlik bilan qurishgan. Ehtimol shuning uchun xam yana bir o'rta asr muallifi Ahmad al-Kotib "Ustrushonada 400-ta qa'la-rabod qurilgan. ... Ustrushona kala-rabodlar mamlakati" deb bejiz ta'kidlamagan. Fag'non rustoqi Ustrushonaning boshqa ma'muriy hududlari qatori Somoniylar davlatiga qo'shib olingandan so'ng bu yerda bir necha yangi shahar va qishloqlarga asos solingan. Antik va o'rta arlarda G'arb va Sharqni bir-biri bilan bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining ahamiyati Ustrushona xalqlari iqtisodi va madaniyati, jumladan xo'jalik madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Eng serqatnov karvon yo'li Bog'dod – Tabriz – Koshon – Marv – Chorjuy – Buxoro – Samarqand – Xarakana – Dizak yo'nalishi bo'lib, Dizakdan so'ng yo'l ikkiga, hatto uchga bo'linib ketgan va barcha holatlarda ham u arab va ajam mamlakatlarini Movarounnahr va Xitoy bilan bog'lagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibn Havqal. Kitob surat al –ard (Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S. Kamoliddin). Toshent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. B-69
2. Al-Bashariy al-Muqaddasiy o'zining «Aqsan at-taqasim fi ma'rifat al-aqalim» («Mamlakatlarni bilish uchun eng yaxshi taqsimot.»)
3. Negmatov N.N. "Ustrushona v drevnosti i rannesrednevekovye" Stalinabad. 1957.
4. Toshboyev F.E. Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi. "Yosh avlod.
5. "Ustrushona buyuk ipak yo'lida, uning mintaqalararo siyosiy – iqtisodiy va madaniy munosabatlarni rivojlantirishdagi o'rni (antik va o'rta asrlar davrida)" mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiyamaliy anjumani materiallari.
6. G'afurov B.G. Tadjiki. Drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya. - M., 1972. – S.290-292.
7. Negmatov N.N. "Ustrushona v drevnosti i rannesrednevekovye" Stalinabad. 1957.